

JAMOAT JOYLARIDA ALKAGOL MAHSULOTLARINI ISTE'MOL QILISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLAR MAXSUS PROFILAKTİKASINING O'RNI VA AHAMIYATI

Soatmurodov Umidbek Olim o'g'li

IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi, 317 guruh kursanti.

Annotatsiya: *Profilaktika inspektorining jamoat joylarda alkagol mahsulotlarni iste'mol qilish bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishning tushunchasi, o'ziga xos jihatlari faoliyatini tartibga soluvchi normalarning amaliyot taxlili hamda ushbu faoliyat doirasida yuritiladigan protsessual xujjatlar, ushbu faoliyatdagi muammo va kamchiliklar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *huquqbuzarlik, jinoyatchilik, jazo tizmi, jamoat joyi, alkagol mahsulotlari, spirtli ichimliklarga ruju qo'ygan shaxslar, jazoga hukm qilingan shaxslar, voyaga yetmagan shaxs, qonunchilik normasi.*

Hozirgi zamonda alkogolizm muammosi jiddiy tus olgan, har yili yer yuzida millionlab odamlar alkogolizmning jiddiy oqibatlari tufayli hayotdan ko'z yumadi. Alkogoliklarda kasalliklar darajasi ikki-uch marta, somatik kasalliklardan o'lim uchto'rt marta ko'p uchraydi. Barcha sabablar tufayli ichkilikbozlarning umr ko'rish o'rtacha 12-18 yilga kamayadi.

Ashaddiy ichkilikbozlik oqibatida barcha ichki a'zolar zararlanadi, ayniqsa, eng ko'p uchraydigan kasalliklarga quyidagilar kiradi: jigarning alkogolli sirrozi, alkogol kardiomiopatiyasi, bosh miya qontomirlar aterosklerozi, kelgusida ensefalopatiya va aqliy zaiflik hamda boshqa qator kasalliklar alkogoldan zaxarlanish oqibatida kelib chiqadi.

Bundan tashqari, ichkilikbozlik oilada, jamiyatda va davlatga bo'lgan munosabatlarni izdan chiqaradi, bu nafaqat mamlakat gepofondini buzib, aholi salomatlik darajasini pasaytiradi, balki jamiyatga qarshi illat hisoblanadi. Albatta surunkali ichish barcha nuqtai nazardan qaraganda ham organizm uchun o'ta xavfli oqibatlarga olib keladi, ichkilikbozlikni tushuntirish va oqlash umuman mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Ayniqsa, o'smirlar va yoshlar, oila qurish arafasida turgan insonlar, bola yaratish davrida erkak va ayollar, homiladorlik, surunkali kasalliklari mavjud bo'lgan hamda jigar kasalliklarini boshidan o'tkazgan va boshqalar umuman alkogolli ichimliklarni iste'mol qilishi mumkin emas.

Alkogol iste'mol qilish masalasi o'ta murakkab va qarama-qarshiliklardan iborat. Afsuski, ichkilikbozlik, aroq va boshqa spirtli ichimliklarning zararlari haqida OAV orqali keng targ'ibot ishlari olib borilishiga qaramay, bu illat kamaymayapti, balki uning miqdori aholi soni boshiga ortib bormoqda. Qadimdan ma'lu.m, "man etilgan meva doim shirin tuyuladi", shuning uchun ushbu nozik masalaga o'ta ehtiyotkorlik bilan yondashib, alkogolga nisbatan munosabatni va xulq-atvorni o'zgartirishga

harakat qilamiz. Alkogolizm (ichkilikbozlik) va alkogolni davriy iste'mol qilishni bir-biridan aniq farqlash lozim.

Alkogolizm - bu kasallik, u maxsus ruhiy kasallarni davolash tibbiyot muassasalarida reabilitasiya qilinadi. Davriy (epizodik) alkogol iste'mol qilishga ma'lum an'analar, bayram va boshqa tadbirlar, stressni yoki charchoqni yengish va boshqalar sabab bo'lishi mumkin. So'nggi o'n yillikdagi tadqiqotlar ko'rsatadiki, kichik miqdordagi sof tabiiy qizil vino yurak qon gomir tizimiga aterosklerozning oldini olish nuqtai nazaridan ijobiy ta'sir etadi, qonda yuqori zichli lipoproteidpar miqdori orgib toj tomirlar devorida xolesterin to'planishiga yo'l qo'ymaydi.

Alkogolning yuqori miqdori yurak ritmini buzadi, yurak mushaklariga salbiy ta'sir etib, o'tkir yurak yetishmovchiligini chaqiradi. Iste'mol qilingan alkogol miqdori toza spirt sifatida ml.da o'lchanadi.

Surunkali ichkilikbozlik va giyohvandlikka muhtalo bo'lgan shaxs qonunchilikda narkologik kasallik (surunkali alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlik) psixoaktiv moddalarga patologik ruju qo'yish, ulardan surunkali zaharlanishning psixosomatik (ruhiy va jismoniy) hamda ijtimoiy oqibatlari bilan tavsiflanadigan surunkali kasallik deb aytilgan.

Shu bois, profilaktika inspektorlari fuqarolarning, avvalo yoshlarning psixoaktiv moddalarni notibbiy ravishda iste'mol qilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi va bartaraf etadi;

narkologik kasalliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi hamda narkologik yordam ko'rsatuvchi boshqa organlar va muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni 4-ilovasida Ichki ishlar organlarining profilaktika inspektorlari zimmasiga yuklatilgan vazifalaridan 4 va 13 vazifalarida belgilab berildi.

Huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarni belgilangan tartibda profilaktik hisobga va ma'muriy nazoratga olish, ular bilan yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy moslashtirish ishlarini individual dastur tuzgan holda tashkil etish.

Tajovuzkor ruhiy kasallar, spirtli ichimlikka ruju qo'yganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalariga ko'maklashishlari belgilab o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi "Huquqbuzarliklar to'g'risida"gi O'RQ-371-son qonuni 26-moddasida. Alkogolni suiiste'mol qiluvchi yoki giyohvandlik

vositalarini, psixotrop moddalarni va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlari sifatida quyidagilar keltirilgan:

Jumladan,

- giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishining, ular iste'mol qilinishining, shuningdek alkogol va tamaki mahsulotlari qonunga xilof ravishda ishlab chiqarilishi hamda realizatsiya qilinishining oldini olish bo'yicha profilaktika tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- mastlik holatida, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida sodir etiladigan. huquqbuzarliklarning sabablari va shart-sharoitlarining oldini olish, ularni aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha profilaktika tadbirlarini o'tkazish;

- giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni saqlash, tashish, realizatsiya qilish va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

- Alkogolni suiiste'mol qiluvchi yoki giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi qonunchilikka muvofiq boshqa chora-tadbirlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 27 oktyabrdagi "Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to'g'risida"gi O'RQ-644-son qonuni 6-moddasida Alkogolni suiiste'mol qiluvchi yoki giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi borasida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining narkologik yordam sohasidagi vakolatlari keltirilgan:

Ushbu qonunning 7-moddasi. Alkogolni suiiste'mol qiluvchi yoki giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi borasida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining narkologik yordam sohasidagi vakolatlari keltirilgan. Jumladan, narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarni majburiy davolashga yuborish uchun hujjatlarning rasmiylashtirilishini ta'minlaydi, shuningdek ushbu shaxslarni sudning qonuniy kuchga kirgan qarori asosida narkologiya muassasalariga olib borishga ko'maklashadi;

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi⁴ning 96-moddasiga muvofiq o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslarni jazoni ijro etish tizimining ixtisoslashtirilgan muassasalarida majburiy davolashni amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin deb ko'rsatilgan.

Profilaktika inspektori jamiyatda bu kabi omillarning yo'qotish uchun maxalla bilan doimo yonma – yon ravshda ish olib bormog'i o'zini o'zi boshqaruvchi organlar

bilan majlizlar qilib mahalladagi notinch oilalarni aniqlash va yakka tartibda profilaktik suhbatlar olib borishi lozim. Yana br tomoni ichkilikbozdik hozirgi kunda jinoyatlarning sodir yetilishiga tasir ko'rsatuvchi kriminogen omillardan xisoblanadi.

Jumladan: Bugungi kunda qasddan odam o'ldirish badanga yengil tan jaroxat yetkazish yehtiyotsizlik orqasida shahsning hayoti yoki sog'ligi uchun havf tug'dirish ko'pincha zo'ravonlik va g'arazgo'ylik jinoyatlarining shuningdek jamoat tartibiga qarshi sodir etiladiigan jinoyatlar ichkilikbozlik bilan uzviy bog'likliqlikda sodir etiladi . Chunki spirtli ichimlik iste'mol kilishi okibatida orgatnizimga ayniksa shahsning asab tizimiga salbiy tasir yetishi natijasida asab tizimi tormizlanishi, o'zini boshqara olmaslik, qilayotgan xati-xarakatini okibatini anglab etmaslik va shahsning hulk-atvorida ematsianal holatlarning salbiy tamonga o'zgarishi kuzatiladi.

Spirtli ichimlik va zaxarvand modda iste'mol qilgan shahslar o'z harakatlarini nazorat kila olmaydigan, jizzaki, ko'pol bo'lib koladi. Bularning barchasi mast kishininig ongida jamiyatdagi o'rnatilgan axlokodob normalari va qonunlariga befarklik, yani xurmatsizlikni shakillantirish bilan birga unga jamiyatga zit bo'lgan g'ayriijtimoiy salbiy harakatlar,xulk-atvorni shakilantiradi va oxir-okibat jinoyat va hukukbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'ladi.

“Spirtli ichimlik va zaxarvandlik”ning eng havfli asorati shundaki, u shahsni fizalogik tamondan giyohvand moddalariga, spirtli ichimliklarga, zaxarvand moddalarga, misol kilib olganda benzin, himikatlar hidlash orkali, bog'lanib kolishiga olib kelmokda. Bu jamiyatga va insoniyatga nihoyatta ko'p zarar etkazadigon ofat desak mubolag'a bo'lmaydi .

Spirtli ichimlik va zaxarvandalikka qarshi kurash va uni oldini olish faoliyati barcha hukukiy fanlarda o'rganiladi .jumladan, tezkor-kidiruv faoliyatida bunday illatga chalingan shahslarni ko'lga olish, ularning jamiyatga keltiradigan zararni kamaytirishga oid fikrlar aytilsa, jinoyat hukuki fani predmetida ularning sodir etgan jinoyatlariga kerakli jazo berish hakida ma'lumot berishadi, profilaktika faoliyatida esa bu illatlarning oldini olish chora-tadbirlari belgilanadi va amalga oshiriladi, shuningdek, bu zararli illatlarni o'ziga hos hususiyati belgilanadi va amalga oshiriladi, shuningdek, bu zararli illatlarning oldini olish ular bilan profilaktik ishlar o'tkazish, har-hil choratadbirlar ko'rish ularni har tomonlama ko'p muhitdan o'rgatishni takazo etadi.

Shu o'rinda “surunkali ichkilikbozlik” o'zi nima degan savolni tug'ilishi tabiiy. Birinchi navbatda bu illatlar kishi organizmiga og'ir asoratlarni keltirib chiqaruvchi kasallikdir, chunki spirtli ichimlikka berilgan odamning hayoti va faoliyati bunday moddalarni muntazam ravishda iste'mol qilishiga bog'liq bo'lib, bu narsa shahsni ham jismoniy ham ruhan holdan toyishiga olib keladi.

Surunkali ichkilikbozlikka ruju qo'yish deganda – shahsning spirtli ichimliklar aroq, vino, samagon, bo'za va kishini mast qiluvchi boshqa ichimliklarga mukkasidan ketishi, ularning iste'mol qilmasdan turolmasligi va unga fiziologik bog'lanib qolishidir. Surunkali ichkilikbozlik shahsning ijtimoiy xatti-harakatlarini sodir etishiga olib

keluvchi asosiy omillardan biri. Ayniqsa surunkali ichkilikbozlik kasalligi oqibatida shaxsning ma'naviy qarashlari torayib, ijtimoiy faoliyati sustlashadi. Oqibatda, ushbu kasallikka yo'liqqan shaxslar oilasida mehnat jamoasida va jamiyatda xavfli muhitni yaratadilar.

Shundan kelib chiqib ta'kidlash kerakki, XMQO larga shu jumladan IIolariga jamiyatimizda sodir bo'layotgan turli jinoyatchilikning oldini olish va ularga qarshi kurashishdek o'ta muhim va mas'uliyatli vazifa yuklatilgan.

Ayniqsa ulg'ayib kelayotgan yoshlarni qalbiga yo'l topa bilish, ularning qalbida vatanga muxabbat, mehr-sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalaridan biri desak to'g'ridir.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib asosiy maqsad- jinoyatchilik bilan bog'liq ijtimoiysalbiy illatlarni oldini olishda turli toifadagi jinoyatchilikning oldini olishda va unga qarshi kurashishda ayniqsa jinoyat sodir etishga ko'proq moyil bo'lgan spirtli ichimlikka ruju qo'ygan shaxslar bilan ishlashda profilaktikaning usul va shakllaridan unumli foydalanish va bu boradagi ishlarni takomillashtirish hozirgi zamonning talabidir.

Shulardan kelib chiqib har bir profilaktika inspektorlari zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi va xizmat vazifalarini samarali bajarishlarida kasbiy bilim, malaka, ko'nikmalar talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/8440>.

2. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 14 noyabrdagi "Bolalarni zo'raonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-996-son qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrdagi «Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida» PF-209-son Farmoni.

4. Таштемиров А. Кибержиноятчилик ва унинг ўзига хос шаклланиш давлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – С. 133-139.

5. Абдухалилов Х. Д. Ў., Валиев Б. Б. Ў. Босқинчилик жиноятларини профилактика қилишнинг долзарб масалалари //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 116-119.

6. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий тармоқлар орқали содир этилаётган жиноятларга қарши курашиш чора-тадбирлари //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 24-31.

7. Nasilloev A. The absence of civil conflicts-a priority direction in the activities of internal affairs bodies in ensuring the rule of law //American journal of education and learning. – 2025. – Т. 3. – №. 9. – С. 770-776.

8. Таштемиров А., Нурматов Н. Айрим хорижий давлатларнинг тезкор қидирув фаолиятида соҳавий ҳамкорликнинг таҳлили //Инновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 190-197.

9. Насиллоев А. Полиция ходимининг талаби тушунчаси ва унинг аҳамияти //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 113-115.

10. Таштемиров А., Юлдошев Х. Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда оммавий ахборот воситалари ва блогерлар билан ҳамкорликнинг ўзига хос жиҳатлари //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 17. – С. 55-61.

11. Зиёдуллаев М., Абдуллаев Ф. Ички ишлар органлари томонидан қўлланиладиган маъмурий чеклаш чоралари тушунчаси, моҳияти ва турларига оид айрим мулоҳазалар //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 9-15.

12. Тоштемиров А. Киберфирибгарлик билан боглик жиноятларнинг пайдо булиш ва ривожланиш тарихи //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – С. 11.

13. Abduxalilov H. D., Xusanova M. M. Voyaga yetmagan jinoyatchining shaxsi //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 8. – С. 146-148.

14. Насиллоев А. Ички ишлар органларининг лицензиялаш ва хабардор қилиш тартибидаги назорат ваколатлари ва уларни такомиллаштириш масалалари //Наука и инновация. – 2024. – Т. 2. – №. 38. – С. 23-25.

15. Abduxalilov X. et al. Profilaktika inspektorining qo 'shmachilik qilish va fohishaxona saqlash bilan bog 'liq jinoyatlar bo 'yicha tezkor qidiruv bilan hamkolrligini takomillashtirish //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 78-84.